

SOVET DAVRIDA O'ZBEKISTONDAGI MADANIY MEROS OB'YEKTLARIGA
BO'LGAN MUNOSABAT (QASHQADARYO MISOLIDA)

Murod Allayev

IIV Qashqadaryo akademik litseyi kafedra boshlig'i

Behzod Dilmurodov

kafedra o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sovet davrida o'zbekistondagi madaniy meros ob'yektlariga bo'lgan munosabat qashqadaryo misolida muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *madaniy meros, munosabat, ma'naviy boylik, qadimgi yodgorliklar, me'morchilik obidalari*

Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridanoq mahalliy aholining ma'naviy boyliklari bilan bir qatorda madaniy merosini ham yo'qotish yoki qarovsiz holatda tashlab qo'yish holatlari yuz berdi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, O'zbekistonda yodgorliklarni muhofaza etish, asosan XX asrning 20-yillaridan boshlangan. 1921 yilning 22 mayida Turkiston ASSR XKSning dekretiga muvofiq, Xalq Maorif Komissarligi huzurida Muzey ishlari, qadimgi yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza etish Turkiston qo'mitasi (Turkkomstaris) tashkil etildi. Qo'mitaning dastlabki faoliyati asosan me'morchilik obidalari, madaniyat va tarixiy yodgorliklarni o'rganish ishi bilan bog'liq bo'ldi. U 1923 yildan Sredazkomstaris¹ nomi bilan qayta tashkil etildi va o'z faoliyatini davom ettirdi².

Qashqadaryo viloyatida 1920–1930 yillarda mavjud tarixiy yodgorliklardan 602 tasi arxeologik, 192 tasi me'moriy va shaharsozlik bilan bog'liq madaniy obidalaridan iboratligi qayd etilgan³. Jumladan, ulardan biri – Qilichboy madrasasi Qarshi shahri va uning atrofidagi 1920 yillargacha mavjud bo'lgan 49 ta madrasaning eng kichigi hisoblanadi. Bu obida 1925 yilda Sovetlar davrida GUPVning maxfiy idorasiga aylantirilgan. 1954 yilda bino shahar maishiy xizmat ko'rsatish xo'jaligi ixtiyorida bo'lib, hovlisi odamlarga uy-joy uchun bo'lib berildi. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda aholi tomonidan bu obidaning hatto darvozasigacha olib ketilgan, yarim vayrona holiga kelib qoladi⁴.

Sovet hokimiyati o'zining dastlabki yillarida Turkistonda moddiy-madaniy yodgorliklarni saqlash va muhofaza qilishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni ko'rdi. Ammo yodgorliklarni muhofaza qilish bilan shug'ullanuvchi davlat tasarrufida bo'lgan tashkilot mavjud emas edi. Natijada Turkiston hududidagi yodgorliklarni muhofaza qilish, ularni saqlab qolish hamda qayta tiklash ishlari tizimli ravishda amalga oshirilmay qoldi.

O'rta Osiyo xalqlari moddiy madaniyatini o'rganish maqsadida Sredazkomstarisning 1927 yil 9 mayda bo'lib o'tgan yig'ilishida O'zSSR Narkompros tomonidan L.V.Oshanin

¹ Бу ташкилот 1923 йилда Туркомстарис ўрнига ташкил этилган, 1926 йил май ойида тарқатиб юборилади.

² Горшенина С. “Туркомстарис – Средазкомстарис – Узкомстарис: формирование институций и этноцентрический раздел культурного наследия Средней Азии” // Этнографическое обозрение, 2012. – № 1. – С.52 – 68.

³ Қашқадарё вилояти давлат архиви (ҚВДА), 533-фонд, 1-рўйхат, 42-иш, 81-варак.

⁴ ҚВДА, 129-фонд. 1-рўйхат, 22-иш, 2-варак.

rahbarligida Qashqadaryo hududida antropologik ekspeditsiya o'tkazish va mahalliy aholining etnografiyasiga oid materiallarni yig'ishga ruxsat berilishi qaror qilingan va 500 rubl mablag' ajratilgani keltiriladi⁵.

Amir Temur va temuriylar davri me'moriy obidalari tarixi bilan bog'liq 1927 yilda Shahrisabz tarixiy-me'moriy yodgorliklari B.N.Zasipkin, 1930 yillarda Ya.G'.G'ulomov, T.Mirg'iyosov, S.K.Kabanovlar⁶ tomonidan tadqiq etilgan. 1942 yilda M.Ye.Masson, G.A.Pugachenkova⁷, V.L.Voronina⁸, 1948 yilda esa O.A.Suxaryeva Shahrisabzning mahallalari, guzarlari, tarixiy topografiyasini o'rgangan⁹.

XX asrning 20 – 30-yillarida Qashqadaryo vohasida, xususan, Qarshi shahrida Ko'kgumbaz masjidi (XVI asr), Odina masjidi (XIV – XV asrlar), Xonaqoh masjidi (XIX – XX asrlar), Mahallot masjidi (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari), Qashqadaryo ko'prigi (XVI asrning ikkinchi yarmi), Qarshi hammomi (Amir hammomi, XVI asr), shuningdek, Sharofboy (XVIII asr boshlari), Bekmir qozoq (1911 yil), Qilichboy (XX asr boshlari), Abdulazizboy (1910 yil), Shermuhammad (XVIII asr) (hozirda saqlanib qolmagan), Xo'ja Qurbon madrasasi (XVII asr) (hozirda saqlanib qolmagan), Qarshi sardobasi (XVI asr), Abu Ubayda ibn al-Jarroh ziyoratgohi (XIV – XV asrlar), Beshkent shahridagi Hazrati Sulton ziyoratgohi (XII – XIX asrlar) kabi ko'plab tarixiy-madaniy yodgorliklar tadqiq etiladi. Ushbu tarixiy obidalarda 1930 yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga rus olimlaridan akademik V.V.Bartold, prof. A.A.Semyonov, A.A.Divayev, V.L.Vyatkin, L.V.Oshanin kabi yirik olimlar jalb qilindi¹⁰. Shuningdek, V.I.Vyatkin, M.F.Mauer, M.Ye.Masson, B.G.Zasipkin va M.Saidjonov kabi arxitektor, arxeolog va tarixchi olimlar tomonidan qadimiy yodgorliklarni aniqlash, ularni ilmiy tavsiflash hamda ta'mirlash bilan bog'liq ilmiy tekshirish ishlari olib borildi¹¹.

Shuningdek, Shahrisabz tumanidagi Dorut-tilovat (XIV asr), Dorus-saodat majmuasidagi Mirzo Jahongir maqbarasi (1370 – 1380 yillarda qurilgan), Oqsaroy majmuasi (1380 – 1404 yillar), Ulug'bek madrasasi (1437 yil), Chorsu savdo markazi (XVI asrning 80-yillari), Shamsiddin Kulol maqbarasi (XV asr), Jahongir Mirzo mozori (XIV asr), Malik ajdar masjidi (XIV asr), Kunduzak masjidi (XIV asr), Kitob tumanidagi Xo'ja Ilmkon xonaqosi (XV–XVI asrlar), Qamashi tumanidagi Langar ota masjidi (XV oxiri–XVI asr boshlari), Koson tumani Pudina qishlog'idagi Qusam ota majmuasi (XI–XIX asrlar),

⁵ Ўз МА, Ф-394-фонд, 1-руйхат, 204-иш, 2 – 3-варақлар.

⁶ Кабанов С.К. Описание архитектурных памятников иговеёв реки Кашка-Дарьи. – Ташкент, 1947. – С. 16; Кабанов С.К. Археологические разведки в верхней части долины Кашкадарьи. Труды института истории и археологии. Вып.7. – Ташкент, 1955. – С.77– 114.

⁷ Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. – Ташкент, государственное издательство художественной литературы Узбекистана, 1958. – 292 с.; Пугаченкова Г.А. Холчаян. – Ташкент, 1966. – С. 241; Пугаченкова Г.А. Термез, Шахрисабз, Хива. – М.: Издательство Искусство, 1976. – 208 с.; Проект районной планировки Китабского района Кашкадаринской области Узбекской ССР. Том 1. – Ташкент, 1971.; Пугаченкова Т.А. Ак-Астана баба // Советская археология. – Т., 1960.; Пугаченкова Г.А. Темурнинг меъморий мероси. Архитектурное наследие Темура. L'Heritage architectural de Timour. – Т.: Главная редакция энциклопедий, 1996. – С. 22– 34; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. – Тошкент: Государственное изд. худож. лит. Узбекистана, 1958. – 292 с.

⁸ Воронина В.Л. Архитектура Средней Азии XVI-XVII вв. // ВИА, Т.8. – М.: Издательство литературы по строительству, 1969. – 492 с.

⁹ Сухарева О. А. К истории городов Бухарского ханства. – Ташкент, 1958. – С. 128– 139.

¹⁰ Содикова Н.С., Буряков Ю.Ф. Тарихий ёдгорликлар хазинаси. – Тошкент: Фан, 1976. – Б.69.

¹¹ Зоҳидов П. Зеб ичра зийнат. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б.17.

Qo'rg'on masjidi (XVI–XVII asrlar), Qarshi tumani Qovchin qishlog'idagi Imom Mo'yin majmuasi, Kasbi tumanidagi Sulton Mir Haydar majmuasi (XI–XVI asrlar), Sardoba (XVI asr), Kasbi tumani Qatag'on qishlog'idagi To'ra masjidi (XVI asr), Kasbi tumani yaqinidagi Nomozgoh (XVI–XVII asrlar) kabi tarixiy ob'yektlar tadqiq etildi¹².

1934 yili O'zbekistondagi tarixiy yodgorliklarni o'rganish va ularning holatini tekshirish, ta'mirlash ishlarini yo'lga qo'yish masalalari Ya.G'ulomov boshchiligida temuriylar hukmronligi davrida Shahrisabz yaqinida bunyod etilgan tarixiy va me'moriy yodgorliklarni atroflicha o'rganishga qaratildi. Ayniqsa, Shahrisabz shahridagi Hazrati Imom, Ko'kgumbaz, Gumbazi Sayidon kabi yirik me'moriy yodgorliklarni tekshirishga va tiklashga doir ishlar olib borilgan. Bu borada fotograf I.Zavalin tomonidan suratlar tushirilib, ular O'zkomstaris qo'mitasiga taqdim etildi¹³.

1949 – 1954 yillar davomida Shahrisabzdagi Ko'kgumbaz masjidida yirik kapital ta'mirlash ishlari olib borildi. Shahrisabz shahri turistik shaharga aylangandan keyin u yerda qurilish ishlari yanada avj olib ketdi. Ko'kgumbaz bilan qo'shni bo'lgan obidalar ham rekonstruksiya qilindi, Ko'kgumbazni tamirlashga jami 234 ming so'm ajratilib, shu mablag' har bitta ob'ektga 74 ming so'mdan qilib, bo'lib tamirlandi. Ko'kgumbazni tamirlashga Xolmat Hoshimov ishchi guruhi jonbozlik ko'rsatdi. Shuningdek, Shodi To'rayev, Davron Abdurahmonov kabi ustalar mehnat qilgan¹⁴.

1965–1966 yillarda tashkil etilgan Kesh arxeologik-topografik ekspeditsiyasi natijasida tadqiqotchi M.Ye.Masson tomonidan Odina masjidi haqidagi fikrlaridan, Shishkin tomonidan olingan suratlardan anglash mumkinki, ushbu bino ham keyingi yillarda mustabid sovet hokimiyatining dastlabki davrida bepisand munosabatda bo'lish oqibatida vayron etilgan. Keyinchalik esa shu tuzum manfaatlari yo'lida xizmat qilgan¹⁵.

Qarshi shahridagi Odina masjididan sovet hukmronligi yillarida turli maqsadlarda foydalanildi. 1938 yili masjid atrofi 6 metrdan qalinroq devorlar bilan o'ralib, qamoqxonaga aylantirildi. Qarshi shahrining eski shahar mavzeida joylashgan bu binoni aholi "Toshturma" deb atab, unda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar ministrligiga qarashli UYa-64/Iz-5 izolyatori joylashtirildi¹⁶.

Qarshi shahar prokuraturasi tergovchisi S.Kattaboyev Odina masjidi tarixini o'rganishga harakat qildi. U arxiv hujjatlari asosida ushbu me'moriy obidaning sovet davri tarixi haqida qimmatli ma'lumotlarni to'playdi. Bino pasporti O'zbekiston SSR NKVDning turmalar bo'limi boshlig'i davlat xavfsizligi kichik leytenanti Kirilov va NKVDning rejim va

¹² Захаров С.М., Сабиржанов А.С., Карши. – Т, 1978; Массон М.Е., Пугаченкова Г.А. Шахрисабз при Тимуре и Улугбеке // Труды САГУ. Кн. 6. – Ташкент, 1953; Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида // Таҳрир хайъати: М.М. Хайруллаев, А.Ўринбоев, О. Бўриев. Тузувчилар: А. Ўринбоев, О. Бўриев. – Тошкент, 1997; Ахмедов Б.А., Мукминова Р.Г., Пугаченкова Г.А. Амир Темура (жизнь и общественно-политическая деятельность). – Ташкент: Университет, 1999; Маньковская Л.Ю. Архитектурные памятники Кашкадарьи. – Т.: 1979. – 110 с.; Султанов Х.Т. К истории формирования архитектурных ансамблей Шахрисабза XIV – XV вв. (по археологическим данным): Автореф. дис... канд. истор. наук. – Самарканд, 1990. – 26 с; Насриддинов К., Хўжайров Ў. Қарши шаҳрининг меъморий ёдгорликлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011.

¹³ Юлдашева Д.У. Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг моддий-маданий ёдгорликларга бўлган муносабати (1917 – 1990 йй.). Тарих фан. бўйича фал. докт. (PhD). дис... автореф. – Тошкент, 2021. – Б.19 – 20.

¹⁴ Аминов А. Кўкгумбаз тикланмоқда // Қашқадарё ҳақиқати, 1974 йил 10 сентябрь.

¹⁵ Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен (Из работ Кешской археолого-топографической экспедиции ТашГУ (1965–1966). – Ташкент, Издательство "Фан", 1973.

¹⁶ Каттабоев С. Одина масжиди қисмати // Қашқадарё, 2005 йил 16 сентябрь.

qo'riqlash bo'yicha operativ bo'limi katta inspektori davlat xavfsizligi kichik leytenanti Viner tomonidan tuzildi. Paspordda turma rahbariyatining 10 kishidan iborat ro'yxati ilova qilinib, ular orasida birorta mahalliy millat vakili yo'q edi¹⁷. Mazkur qamoqxona 1939 yilda ham faoliyat ko'rsatgan. Mavjud hisobatlarda 1939 va 1940 yillarga oid ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan, ushbu joydan 1939 – 1940 yillarda 3 nafar maxbus qochganligi, ulardan 2 nafari xo'jalik ishlarida foydalanilayotganda, 1 tasi esa soqchi kuzatuv ostidan qochib ketgan. Bu turma 600 kishiga mo'ljallangan bo'lib, temir yo'ldan 7 km, Qarshi shahar NKVDsidan 1 km. uzoqlikda joylashgan¹⁸.

Qashqadaryo viloyatida mavjud tarixiy yodgorliklardan turli maqsadlarda foydalanish hollari ortib bordi. Masalan, Sharofboy madrasasi XX asrning 30-yillaridan e'tiboran dastlab madaniyat uyi, so'ng klub, hatto teri tanosil kasalliklari dispanseri joylashtirilgan bino sifatida ham faoliyat yuritdi. Bunga o'xshash holatni Bekmirqozoq madrasasida ham ko'rish mumkin. Jumladan, 20-yillarning ikkinchi yarmi – 30-yillarning o'rtalarida ushbu binodan shahar ichki ishlar komissariyatining boshqarmasi sifatida foydalanildi¹⁹.

1923 yil 8 martda Turkiston hukumatining "Qadimiy va san'at yodgorliklarini hisobga olish va ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida"gi dekretiga asosan o'lkadagi mavjud qadimgi yodgorliklar, arxitektura va san'at obidalarini ro'yxatdan o'tkazish ishlari bajarildi. Mazkur qaror asosida XX asr 30-yillarining ikkinchi yarmida Qashqadaryo viloyatida mavjud bo'lgan 30 ga yaqin tarixiy-arxeologik inshootlar (tepalar) ro'yxatga olindi²⁰.

Respublikaning bir qator ko'hna shaharlaridagi me'moriy inshootlar sovet hokimiyatining musulmon ruhoniylariga qarshi olib borilgan kurash oqibatida xarobaga aylangan. Xususan, Qarshi shahridagi me'moriy yodgorliklardan biri – Odina jome' masjidi XIV asrning 80-yillarida barpo etilib, shahar Registoni majmuiga kirgan eng yirik me'moriy inshoot hisoblangan. Masjidning uzunligi 50 metr, eni 40 metrga teng bo'lib, uning ichidagi ibodat joylari keng, tepasi kichik gumbazchali, g'isht ustunlar bir-biriga ravoqlar orqali tutashtirilgan. Biroq, bu yodgorlik yuqorida keltirilgan islom diniga qarshi qaratilgan sovet siyosati qurboniga aylangan. Aynan sovet hukmronligi yillarida masjidning baland minoralari, moviy gumbazli xonaqohi, mehrobi, minbariga qo'shib ayvon, sardoba ham buzib tashlangan²¹. 1938 yilda masjidning atrofi baland devor bilan o'rab olingan va mahbuslar saqlanadigan joyga aylantirilgan. Bu bilan esa azal-azaldan musulmon ahliga diniy ta'lim berib kelgan mazkur muassasaning faoliyati tamomila cheklandi.

Shuningdek, 1940 – 1945 yillarda Qarshi shahrida joylashgan Bekmir qozoq madrasasi binosi ham askarlarga jo'natish uchun zaxira sifatida tayyorlangan kiyim-kechaklar saqlanadigan ombor vazifasini o'taganligi arxiv hujjatlaridan ma'lum. Binoning ikkinchi qavati esa askarlarga harbiy kiyim va poyabzal tikadigan tikuvchilik sexi sifatida faoliyat yuritgan²².

¹⁷ Эштемиров Ж. XX – XXI аср бошларида Қарши шаҳар маданияти. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Қарши, 2018. – Б.135 – 136.

¹⁸ Каттабоев С. Одина масжиди қисмати // Қашқадарё, 2005 йил 16 сентябрь.

¹⁹ Насриддинов Қ., Хўжайров Ў. Қарши шаҳрининг меъморий ёдгорликлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б.14

²⁰ ҚВДА, Ф-1-фонд, 1-рўйхат, 254-иш, 2 – 12-варақлар..

²¹ Сиддикова Г. Бир обида тарихи // Моziydan sado, 2011 йил 1 – 2-сонлар. – Б.52.

²² Насриддинов Қ., Хўжайров Ў. Қарши шаҳрининг меъморий ёдгорликлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б.17

1945–1947 yillarda O‘zbekiston SSR hukumati me‘moriy obidalarni, qadamjolarini tiklash va ta‘mirlash uchun davlat byudjetidan 1 mln. 800 ming rubl miqdorida mablag‘ ajratdi. Ta‘mirlash ishlari uchun rejalashtirilgan diniy muassasalarning 22 tasi madrasa, xonaqoh va maqbaralardan iborat bo‘lgan²³. Jumladan, Qashqadaryo viloyatining Shahrhisabz shahri markazida joylashgan Oqsaroy yodgorligiga 50 ming rubl mablag‘ sarflandi²⁴.

Sovet Ittifoqi Ministrlar Sovetining 1948 yil 14 oktyabrdagi “Madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilishni yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori joylarda arxitektura yodgorliklarini maxsus ilmiy jihatdan ta‘mirlash ishlariga huquqiy zamin yaratdi. Mazkur qarorda arxitektura yodgorliklarini aniqlash va hisobga olish, ulardan foydalanish shartlari va saqlash qoidalari, muhofazaga olish ishlari mustahkamlab qo‘yildi. Shundan kelib chiqqan holda Shahrhisabz shahrida 5 ta yodgorlik ro‘yxatga olindi²⁵.

Xullas, sovet davrida madaniy meros yodgorliklarini saqlash va qayta ta‘mirlash bo‘yicha ham bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Shunday bo‘lsa ham ko‘plab yodgorliklar qarovsiz holatga tushib qolgan edi.

²³ Ўз МА, Р-837-фонд, 32-рўйхат, 2448-иш, 15 – 16-варақлар.

²⁴ Ўз МА, Р-837-фонд, 32-рўйхат, 2448-иш, 76-варақ.

²⁵ Ўз МА, Р-2296-фонд, 1-рўйхат, 379-иш, 3-варақ.